
YANGI TAHRIRDAGI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MEHNAT KODEKSIGA KIRITILGAN O'ZGARISH VA YANGILIKLAR

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga kiritilgan o'zgarish va yangiliklar

Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksiga xizmat tekshiruvini degan yangi qonun normasi kiritilgan, hozirgi mehnat kodeksida ushbu qonun normasi belgilanmagan.

302-modda. Xizmat tekshiruvini tushunchasi xizmat tekshiruvini xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilganligi faktini, uning sodir etilishida xodimning aybini, xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilishiga imkon bergan sabablar va shart-sharoitlarni, ish beruvchiga yetkazilishi mumkin bo'lgan moddiy zararining xususiyati va miqdorini aniqlash maqsadida amalga oshiriladigan tekshirishdir.

303-modda. Xizmat tekshiruvini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish xizmat tekshiruvini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish uchun ommaviy axborot vositalarining xabarlari, xodimning bevosita rahbarining bildirgisi, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilgan deb taxmin qilish uchun asos beradigan boshqa ma'lumotlar asos bo'ladi. Ish beruvchi xizmat tekshiruvini o'tkazish haqida qaror qabul qilishga haqli. Xizmat tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi qaror tegishli buyruq bilan rasmiylashtiriladi. O'ziga nisbatan xizmat tekshiruvini o'tkaziladigan xodim ish beruvchining xizmat tekshiruvini o'tkazish haqidagi buyrug'i hamda xizmat tekshiruvini o'tkazish bo'yicha komissiya tarkibi bilan imzo qo'ydirib tanishtirilishi kerak.

304-modda. Xizmat tekshiruvini o'tkazish bo'yicha komissiya tuzish xizmat tekshiruvini o'tkazish uchun ish beruvchining buyrug'i bilan xizmat tekshiruvini o'tkazish bo'yicha komissiya tuziladi (bundan buyon matnda komissiya deb yuritiladi). Komissiya kamida uch nafar a'zodan iborat bo'lishi kerak, ularning bir nafari komissiyaning raisi bo'ladi. Komissiya tarkibiga tashkilotda mavjud bo'lgan taqdirda kasaba uyushmasi qo'mitasining a'zosi kiradi. Komissiya raisi komissiya ishini tashkil etadi va muvofiqlashtiradi. Uning o'tkazilayotgan xizmat tekshiruvini doirasidagi qonuniy talablari komissiya a'zolari tomonidan bajarilishi majburiydir. Komissiya raisi xizmat tekshiruvini tashkil etish, tayyorlash va o'tkazish sifati, uning natijalari, xulosalari va takliflarining xolisligi uchun shaxsan javobgar bo'ladi.

Komissiya tarkibiga quyidagi shaxslarning kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi:

xizmat tekshiruvini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilgan mansabdor shaxs;

harakatlari tekshirilishi zarur bo'lgan xodimlar bo'ysunuvidagi xodimlar;

o'ziga nisbatan xizmat tekshiruvini o'tkazilayotgan xodim bilan qarindoshlik aloqalarida bo'lgan shaxslar;

xizmat tekshiruvini natijalaridan bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslar, shu jumladan xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilishiga yoki intizomiy qilmishning yashirilishiga daxldor ekanligi to'g'risida asoslangan gumonlar mavjud bo'lgan shaxslar;

murojaati xizmat tekshiruvini o'tkazilishi uchun asos bo'lib xizmat qilgan shaxslar;

o'ziga nisbatan xizmat tekshiruvini o'tkazilayotgan xodimlar.

Xizmat tekshiruvini o'tkazishga maxsus bilimlar sohasida maslahat olish uchun shartnoma asosida ekspertlar sifatida mutaxassislar jalb qilinishi mumkin.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2022-12-13 15:08:21